



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





TASHQI TA'SIRLARNI YUMSHATISH BO'SHATISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI

Boltaboyeva Mavjuda Baxtiyor qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi 243 - guruh talabasi

mavjudaboltaboyeva5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida mamlakat ichki barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar va ularni yumshatishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Iqtisodiy, siyosiy, ekologik hamda ijtimoiy sohalaridagi tashqi ta'sirlarning ta'sir mexanizmi, ularning milliy rivojlanish jarayoniga ta'siri hamda ularni kamaytirish strategiyalari yoritiladi. Maqolada O'zbekiston tajribasi misolida tashqi ta'sirlarni yumshatishning samarali yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Tashqi ta'sir, davlat siyosati, globallashuv, iqtisodiy xavfsizlik, diplomatik hamkorlik, barqaror rivojlanish.

Kirish. Globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda. Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, siyosiy keskinliklar, ekologik muammolar va madaniy ta'sirlar har bir davlat uchun yangi sinovlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, har bir mamlakat tashqi omillarning salbiy oqibatlarini kamaytirish, milliy manfaatlarini himoya qilish va ichki barqarorlikni ta'minlash maqsadida o'zining mustaqil davlat siyosatini yuritadi. Iqtisodiy o'sish va sanoatlashtirish jarayinida tashqi ta'sirlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Shu sababli, tashqi ta'sirlarni yumshatish bo'yicha samarali davlat siyosatini yuritish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Tashqi ta'sirlarni yumshatish davlat siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u iqtisodiy mustahkamlikni ta'minlash, milliy xavfsizlikni saqlash hamda xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Tashqi ishlar iqtisodiy subyektlarining faoliyati natijasida uchinchi shaxslarga to'g'ridan - to'g'ri iqtisodiy munosabatlarsiz ta'sir ko'rsatish holatidir. Ular ikki turga bo'linadi:

- Ijobiy tashqi ta'sirlar: ta'lim, sog'liq saqlash, ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- Salbiy tashqi ta'sirlar: atrof - muhitning ifloslanishi, chiqindilar ko'payishi, resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanish, transport shovqini va boshqalar.

Davlat tashqi ta'sirlarni kamaytirish uchun turli iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlardan foydalandi:

1. Soliq va yig'imlar tizimi: chiqindilar, atmosferaga chiqarilgan gazlar va ekologik zarar uchun maxsus soliqlar joriy etildi.





2. Subsidiyalar va grantlar: ijobiy tashqi ta'sirlar yaratuvchi sohalar (masalan, qayta tiklanuvchi energiya, ta'lim, innovatsiyalar)ni rag'batlantirish.
3. Normativ - huquqiy tartibga solish: ekologik me'yorlar, energiya samaradorligi standartlari, litsenziyalash tizimlari.
4. Davlat investitsiyalari dasturlari: "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi, resurslardan oqilona foydalanish dasturlari.

1. Iqtisodiy tashqi ta'sirlarni yumshatish.

Global iqtisodiy inqirozlar, valyuta kurslarining tebranishi, energiya o'zgarishi kabi omillar davlat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli davlatlar iqtisodiy siyosatini tashqi risklarga bardosh bera oladigan tarzda olib borishi zarur. O'zbekistonda bu yo'nalishda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, eksport salohiyatini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilish orqali tashqi iqtisodiy ta'sirlarni kamaytirish yo'liga katta e'tibor qaratilgan.

2. Siyosiy va diplomatik siyosat.

Tashqi siyosiy ta'sirlarni yumshatishda diplomatik aloqalar muhim o'rin tutadi. Har bir davlat o'z manfaatlarini himoya qilgan holda, boshqa mamlakatlar bilan tinchlik va hamkorlik siyosatini yuritadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng "ochiq tashqi siyosat" tamoyiliga amal qilib kelmoqda. Bu tamoyil Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, BMT, SHHT, MDH, IHT kabi xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik tashqi ta'sirlarni yumshatishda muhim rol o'ynaydi.

3. Ekologik tashqi ta'sirlarni kamaytirish.

Global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tanqisligi va ekologik muammolar dunyo miqyosidagi eng dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini amalga oshirmoqda, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritilmoqda. Shu bilan birga, Orolbo'yi hududini ekologik tiklash bo'yicha xalqaro tashabbuslar tashqi ekologik ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan.

4. Ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi siyosat.

Tashqi madaniy ta'sirlar, migratsiya jarayonlari, axborot oqimining kengayishi milliy qadriyatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli davlat ijtimoiy siyosat orqali yoshlarning ongini mustahkamlash, ma'naviyatni yuksaltirish, milliy qadriyatlarni asrashga alohida e'tibor qaratadi. O'zbekistonning "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi qonuni, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar konsepsiyasi" shular jumlasidandir. Bu tashabbuslar tashqi madaniy bosimlarni yumshatish va milliy o'zlikni saqlashga xizmat qiladi.

5. O'zbekiston tajribasi





O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda tashqi ta'sirlarni yumshatishga qaratilgan tizimli siyosat yuritmoqda. 2019 - yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" asosida 2030 - yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 25 foizga yetkazish maqsad qilingan. 2024 - yil yakuniga ko'ra, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 15 foizdan ortig'i quyosh va shamol manbalaridan olinmoqda. 2023 - yilda esa ekologik soliqlar hajmi 1.4 trillion so'mni tashkil etgan. Davlat ekologiya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishdir. 2024 - yilda respublika bo'yicha qayta ishlash darajasi 42 foizga yetdi. Shuningdek, Ekologiya, artof - muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan atmosfera ifloslanishini monitoring qilish bo'yicha raqamli platformalar joriy etilmoqda. Raqamli texnologiyalar transport harakatini optimallashtirib, yoqilg'i sarfini 10 - 15 foizga kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Tashqi ta'sirlarni yumshatish siyosatini yanada samarali qilish uchun:

- ekologik soliqlarni tabaqalashtirish;
- yashil obligatsiyalar tizimini rivojlantirish;
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- ekologik ta'lim va madaniyatni rivojlantirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, tashqi ta'sirlarni yumshatish bo'yicha davlat siyosati mamlakat barqaror rivojlanishining garovi hisoblanadi. Bu siyosat nafaqat tashqi omillarni cheklash, balki ularga moslashish, ichki resurslardan samarali foydalanish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor mexanizmlarini tartibga solish vositalari bilan uyg'unlashtirish orqali tashqi ta'sirlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin. Kelgusida "yashil iqtisodiyot" inovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish tashqi ta'sirlarni yumshatishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Tashqi ta'sirlarga nisbatan puxta siyosat yuritish orqali davlat o'z mustaqilligini mustahkamlaydi, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydi va fuqarolar farovonligini oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari. — Toshkent: O'zbekiston, 2022.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: O'zbekiston, 1997.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti — <https://mfa.uz>
- 4.O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari (2023–2024-yillar).
- 5.Xaydarov, A. Globallashuv va milliy xavfsizlik. — Toshkent: Akademnashr, 2020.
- 6.O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari stat.uz, 2024 - yil hisobotlari.

